


## X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2021 yil 1 iyul holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 30 063 tani tashkil qildi. (2020 yil 1 iyulga nisbatan 121,4 % ga ko‘pdir).

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes sub’ektlari sonining 2021 yil 1 iyul holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi



Eng ko‘p kichik biznes sub’ektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan sub’ektlarning 40,0 %), sanoat sohasida (27,8%), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (10,7 %) va qurilishda (9,6 %) tashkil etilgan.


## Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

	2020 yil yanvar-iyun	2021 yil yanvar-iyun
<b>Viloyat jami</b>	<b>3 184</b>	<b>3 411</b>
Namangan shahar	648	849
Mingbuloq	214	177
Kosonsoy	205	201
Namangan	276	205
Norin	195	219
Pop	327	243
To'raqo'rg'on	257	271
Uychi	260	237
Uchqo'rg'on	182	238
Chortoq	183	254
Chust	243	338
Yangiqo'rg'on	194	179

2021 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 849 ta, Chust tumanida – 338 ta, To'raqo'rg'on tumani – 271ta, Pop tumanida – 243 ta, Namangan tumanida – 205 ta, Uychi tumanida – 237ta, Uchqo'rg'on tumanida – 238 ta, Norin tumani, Yangiqo'rg'on tumani, Chortoq va Norin tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida – 177 tani tashkil etdi.



### 2021 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda




2021 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Namangan shahri - 24,9 %, Chust tumani – 9,9%, To'raqo'rg'on tumanida -7,9 %, Chortoq tumani 7,4 % Pop tumani – 7,1 %, Uchqo'rg'on – 7,0 %, Uychi tumalarida 6,9 %, Namangan tumalarida – 6,0 %, va Kosonsoy tumani – 6,4 %, tashkil etdi.

2021 yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 71,6 % (2020 yil yanvar-iyun oylarida 71,0 %) kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes sub'ektlari tomonidan 107,1 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 48,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 217,2 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 75,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi

(yanvar-iyun oylari holatiga, foizda)



## Kichik tadbirkorlik sub'ektlari (ish, xizmat) hajmi

(2021 yil yanvar-iyun)

	Kichik tadbirkorlik sub'ektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 127,9	97,3
Sanoat	2 928,6	46,5
Qurilish	1 633,2	96,8
Chakana savdo	5 816,3	92,9
Yuk tashish, mln. tonna	11,1	93,5
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	202,1	97,5

**2021 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(foizda)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
<b>Viloyat jami</b>	<b>46,5</b>	<b>87,3</b>	<b>64,7</b>	<b>75,5</b>
Namangan shahar	56,0	63,9	52,3	60,7
Mingbuloq	24,6	100,0	75,4	92,7
Kosonsoy	70,1	100,0	78,0	89,5
Namangan tuman	47,7	100,0	73,3	92,5
Norin	54,9	100,0	78,6	92,6
Pop	51,9	74,1	65,3	82,0
To'raqo'rg'on	16,7	100,0	65,4	85,2
Uychi	73,2	97,8	73,8	93,9
Uchqo'rg'on	13,9	100,0	71,7	95,7
Chortoq	100,0	96,7	70,1	92,2
Chust	34,2	100,0	72,7	61,3
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	80,3	96,7

Hududlar bo'yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0 %) hamda Kosonsoy (70,1 %) tumanlari tashkil etdi.

**Qurilishda** - Mingbuloq, Kosonsoy, Namangan tumani, Norin, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on va Yangiqo'rg'on Chust tumanlarida 100,0 %, Namangan shahar 63,9 % va Pop tumani 74,1 % tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasida** – Yangiqo'rg'on (80,3 %), Uychi (73,8 %), Namangan tuman (73,3 %), Chortoq (70,1 %), Norin (78,6 %), Uchqo'rg'on (71,7 %), Chust (72,7 %), tumanlari tashkil etdi.

**Investitsiyada** – Uchqo'rg'on (95,7 %), Chust (61,3%), Yangiqo'rg'on tumanlari (96,7 %), Uychi (93,9 %), Norin (92,6 %) va Chortoq (92,2 %) tumanlari yuqori ulushlarni tashkil etdi.